



UO‘T:634.21

## MAHALLIY O‘RIK NAVLARINING AGROBIOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Nazarova Dilrabo Qo‘chqorovna,  
stajor-tadqiqotchi.*

*Akademik M.Mirzayev nomidagi  
bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik  
ilmiy tadqiqot instituti*

***Annotatsiya:** Maqolada mahalliy o‘rik navlarining kelib chiqishi, vatani, O‘zbekistonda ma‘lum bo‘lgan vaqti, agrobiologik xususiyatlari: o‘simlikning gabitusi, mevasining xususiyatlari, hosildorligi, atrof-muhitning noqulay sharoitlariga chidamligi va boshqa xususiyatlari hamda navlari haqida bayon qilingan.*

***Аннотация:** В статье описываются происхождение, родина, время появления в Узбекистане, агробиологические характеристики местных сортов абрикоса: габитус растения, особенности плодов, урожайность, устойчивость к неблагоприятным условиям окружающей среды и другие особенности и сорта.*

***Annotation:** The article describes the origin, homeland, known time in Uzbekistan, agbiological characteristics of local apricot varieties: gabitus of the plant, features of the fruit, yield, resistance to adverse environmental conditions and other features and varieties.*

***Kalit so‘zlar:** o‘rik, agrobiologiya, mahalliy navlar, shox-shabba, meva, barg, vitamin.*

O‘rik O‘zbekistonda ham sarxil holda iste‘mol qilinadigan ham qayta ishlanadigan asosiy mevalaridan biri hisoblanadi.

O‘rik juda qadimiy mevali daraxt, o‘rik haqida ma‘lumotlar Xitoy, Markaziy Osiyo va Armanistonda 7-8 ming yil oldin paydo bo‘lgan. Markaziy Osiyoda hali ham o‘rikning yovvoyi holda o‘sadigan tur va navlari bor. O‘zbekistonda eramizdan oldingi



VI-V ming yillikka mansub aholi punktlarida olib borilgan qazishma ishlarida o'rik urug'lari topilgan. [1,2,4].

O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab o'rikning 40 dan ortiq xalq va ilmiy seleksiya asosida yaratilgan navlari rayonlashtirilgan.

O'rik navlarining agrobiologik xususiyatlariga o'simlikning gabitusi, mevasining xususiyatlari, hosildorligi, atrof-muhitning noqulay sharoitlariga chidamligi va boshqa xususiyatlar kiradi [5].

**O'rik** — ra'noguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, daraxtlar turkumiga kiruvchi mevali o'simlik. Hozirda Osiyoda 10 turi ma'lum va 500 dan ortiq navi bor. O'zbekistonda, asosan, oddiy O'rik turi ekiladi. Boyi 5—8 m, shox-shabbasi keng. Bargi keng tuxumsimon, guli oq yoki pushti, barg yozishdan oldin ochiladi. Mevasi etli, yumaloq, tuxumsimon, oq, sariq, qizg'ish; danagidan ajraladigan va ajralmaydigan xillari bor, shirin, shirinnordon. Tarkibida 14—16% qand, 0,6 — 1,2% olma, limon va boshqa kislotalar, 28—31% quruq modda, C, PP vitamini, 0,38—1,27% pektin, 10 mg gacha karotin, danagi mag'zi shirin (ayrim navlariniki achchiq), tarkibida 29—58% yog' bor. O'zbekistonda mart—aprelda gullaydi, naviga qarab may—iyulda pishadi. O'rik issiqsevar, yorug'sevar, qurg'oqchilik va issiqlikka chidamli, lekin namlik yetishmaganda hosilli kurtaklari meva tugmaydi. O'rik unumdor, serquyosh, bo'z hamda shag'altoshli sug'oriladigan yerlarda yaxshi o'sadi. O'zbekistondagi o'rikzorlarning asosiy qismi Farg'ona vodiysi va Zarafshon vohasida joylashgan [2, 10].

O'rik daraxti issiqqa talabchan bo'lib, erta gullashi sababli bahorgi qora sovuqlar deyarli bo'lmaydigan va qishgi harorat ko'pi bilan -28-29°C bo'ladigan hududlarda o'stirish kerakligi ta'kidlangan.

O'rik (*Armeniaca* mill) turkumi 7 turga bo'linadi, ulardan eng muhimlari quyidagilar: Jaydari o'rik, Manjuriya o'rigi, Sibir o'rigi, Gunafsha rang g'adir-budir o'rigi, Xitoy o'rigi, Mumi va Yapon o'rigi-ansu [3].



**Subhoniý navi.** Mahalliy nav. 1959 yildan Andijon, Namangan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari boyicha Davlat reyestriga kiritilgan. Daraxtining bo‘yi baland, shox-shabbasi keng piramidasimon, ko‘chati ekilgandan so‘ng sakkizinchi yili hosilga kiradi. Hosildorligi – 110,1 s/ga, eng yuqori hosildorligi 133,3 s/ga ni tashkil etadi. Nav ertapishar, mevasi iyunning birinchi o‘n kunligida yetiladi. Mevasi keng tuxumsimon, rangi yashil tusli, och zarg‘aldoq, och pushti g‘ubori bor. Mevasi yirik, o‘rtacha vazni – 32 g. Eti to‘q sariq, o‘rtacha sershira, mazasi nordon-shirin. Mevasining pishgan vaqtidagi ta‘m bahosi – 4,5 ball.

Subhoniý o‘rigi quritilgani qimmat bo‘ladi. Turshak, bargak, qoqi shaklida anchayin daromadli meva sanaladi!

**Ko‘rsodiq navi.** Daraxti baland, shox-shabbasi yoyilib o‘sadi. Barglari yirik. Mevasi o‘rtacha, 35—40 g, dumaloq. Po‘sti yupqa, sertuk, eti to‘q sariq, ta‘mi xushxo‘r, suvli, shirin. Mevasi tarkibida 14—16% qand, 0,6—1,09% kislota, 23,8 mg % vitamin C bor. Danagidan oson ajraladi. Danagi yirik, mag‘zi shirin. Ko‘chati o‘tqazilgach, 7—8-yili hosilga kiradi, mevasi iyun oxiri — iyulning boshlarida pishadi. 30—40 yoshida tupidan 200-300 kg hosil olinadi. Mevasi, asosan, quritiladi (32—33% turshak tushadi), kompot, murabbo pishiriladi. Kasalliklarga chidamli nav. Samarqand, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo viloyatlarida, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarining tog‘ oldi hududlarida ekiladi.

**Yubileyniy Navoiy navi.** Akademik M.Mirzayev nomli bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasida Arzami, Gulungi navlarini chatishtirib yaratilgan. Mualliflar: K.V. Vasilyev, L.A. Protasevich.

1958 yildan Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Surxondaryo, 1967 yildan Buxoro, Navoiy, Toshkent va 1973 yildan Farg‘ona viloyatlari boyicha Davlat reyestriga kiritilgan. Nav ertapishar, mevasi iyunning birinchi o‘n kunligida yetiladi, iyun oxiri — iyul boshlarida pishadi. Daraxti kuchli o‘sadi. Shox-shabbalarining qalinligi o‘rtacha, tupiga yaxshi shakl berish mumkin, daraxtining bo‘yi baland,



balandligi 7,5–9 m gacha, shox-shabbasi dumaloq, kengligi 7 m gacha boradi. Qisman o‘zidan va chetdan changlanadi. Shakl berishga moyil, ko‘chatlari ekilgandan so‘ng beshinchi yili hosilga kiradi. 15—17 yoshida tupidan 200 kg gacha meva olinadi. Hosildorligi – 84,2 s/ga, eng yuqori hosildorligi – 135,3 s/ga ni tashkil etadi. Mevasi dumaloq, tilla rang sariq, qizil g‘uborli, yirik, o‘rtacha vazni – 42 g. Po‘sti silliq, qalin. Eti juda ham zich, och sariq, qattiq, sal quvuroq, mazasi nordon-shirin. Mevasining pishgan vaqtidagi ta‘m bahosi – 4,4 ball. Mevasi yangiligida yeyiladi, konserva qilinadi va qoqi solinadi. Uzoq joylarga yuborishga chidamli.

**Oq o‘rik navi.** Ertapishar xo‘raki mahalliy o‘rik navi. Daraxti kuchli o‘sovchi, balandligi 7,5 m o‘sadi. Chetdan changlanadi (Arzami, Ko‘rsodiq navlari yaxshi changlovchi hisoblanadi). Mevasi o‘rtacha kattalikda, tukli, vazni 30-40 g, rangi sariq, eti tig‘iz, mayin, sersuv, shirali. Iyun oyininig ikkinchi o‘n kunligida pishadi. Danagi o‘rtacha, mag‘zi shirin. Mevasi tarkibida 11-16% quruq modda bor. Tupidan 80-100 kg meva olinadi, mevasi yangiligida iste‘mol qilinadi, qoqi solinadi, murabbo tayyorlanadi. Sovuqqa chidamli. Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida ko‘p ekiladi.

**Isfarak navi.** 1959 yildan Andijon, Qashqadaryo, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari bo‘yicha Davlat Reyestriga kiritilgan. Nav ertapishar, mevasi iyunning ikkinchi o‘n kunligida pishib yetiladi. Daraxtning bo‘yi o‘rtacha, shox-shabbasi serbarg, daraxti ekilgandan so‘ng yettinchi yili hosilga kiradi. Hosildorligi 161,1 s/ga, eng yuqori hosildorligi 249,2 s/ga ni tashkil etadi. Mevasi dumaloq, rangi sariq-zarhaldoq, sal pushtisi bor, mevasining o‘rtacha vazni 31 g. Eti och zarg‘aldoq, juda zich, mazasi nordon-shirin. Mevasining pishgan vaqtidagi ta‘m bahosi 5,0 ball [6,7,8,9].

Xulosa. O‘rik O‘zbekiston hududida juda qadimiy madaniylashtirilgan mevalardan biri. O‘rik yangiligida iste‘mol qilinadigan va eng ko‘p qayta ishlanadigan meva bo‘lganligi sababli, katta maydonlarda ekiladi. Erta pishib tugashligi, tashuvchanligini biroz pastligi hamda juda uzoq muddat saqlab bo‘lmasligi, mevasini qayta ishlab, yetkazib berishni taqazo etadi.



### Adabiyotlar ro'yxati

1. Arzumanov V.A., Butkov U.A., i drugiye. Rastitelniye resursi plodovix i orexoplodnix rasteniy Sentralnoy Azii i ix rol v formirovanii mestnogo sortimenta. T., 2015. –S. 35-36.
2. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. O‘zbekiston mekachiligi. T.,1981.-B. 30, 31.
3. Ostonaqulov T.E., Narziyeva S.X. Mevachilik asoslari. T., 2010. –B. 19
4. Vitkovskiy V.L. Plodoviye rasteniya mira. Sank-Peterburg: Lan, 2003. – S. 192.
5. G‘aniyev SH.A. O‘zbekistonda rayonlashtirilgan anjir navlarining agrobiologik xususiyatlari. //Mevachilikda va uzumchilikning rivojlanishida ilm-fan yutuqlari. Respublika anjumani. -T., 2022. –B. 507.
6. Sulaymonov B.A., Saimnazarov Y.B. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan meva-uzum navlarining katalogi. T., -B. 52-56
7. [http://T.me/agro\\_hayot](http://T.me/agro_hayot)
8. <https://uz.wikipedia.org/>
9. <https://uzsmart.uz/> 2024
10. Qomus.info.onlayn ensiklopediY. Sulton Xolnazarov.